

# Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi




## 2018 yilning yanvar – dekabr oylarida QURILISH PUDRAT ISHLARI

Joriy yilning yanvar – dekabr oyida viloyat bo'yicha 3 458,2 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 597,9 mlrd.so'mni yoki jami qurilish ishlari xajmining 17,3 % foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,1 % ni tashkil qildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 52,4 %i yoki 1 810,6 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,2 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 30,3 % ni yoki 1049,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni tashkil etdi. Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining o'sishi kuzatildi. Shu jumladan, Chiroqchi tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 227,3 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 102,7 foizni, Shahrisabz shahrida – 153,4 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 103,5 foizni, G'uzor tumanida -171,1 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 104,2 foizni, mos ravishda, Qamashi tumanida – 79,4 mlrd.so'mni yoki 101,8 foizni tashkil etdi.


<b>Yirik pudrat tashkilotlari</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• hajmi - <b>597,9 mlrd.so`m</b></li> <li>• o`sinh surati - <b>81,1 %</b></li> </ul>
<b>Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• hajmi - <b>1810,6 mlrd.so`m</b></li> <li>• o`sinh surati - <b>114,2 %</b></li> </ul>
<b>Norasmiy sektor</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• hajmi - <b>1049,7 mlrd.so`m</b></li> <li>• o`sinh surati - <b>101,1%</b></li> </ul>

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 597,9 mlrd.so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 17,3 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,1 %ni tashkil etdi.




Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,4 % i yoki 1 810,6 mlrd.so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 30,3 % yoki 1049,7 mlrd.so`m to`g`ri keldi, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,1 % ni tashkil etdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi jami qurilish ishlari hajmida 7,4 %ni, hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,5 %ni tashkil qildi.

## yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 4,9 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 59,6 % (6,0 %

punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 38,4 % ni (3,2 % punktga kamayish) tashkil etdi. Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 52,6 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 13,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 47,4 % (13,5 % punktga ko'payish) tashkil etdi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,9 % punktga ko'paydi va 70,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 29,9 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,9 % punktga kamaydi.




**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi**

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
			<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3458,2</b>	<b>103,5</b>	<b>213,9</b>	<b>64,7</b>
tumanlar:				
G'uzor t	171	104,2	-	-
Dehqonobod t	103,7	100,5	-	-
Qamashi t	79,4	101,8	-	-
Qarshi t	287,6	102,6	4,3	224,1
Koson t	403,5	101,2	7,7	109
Kitob t	267,7	106,6	-	-
Mirishkor t	101,4	101,3	-	-
Muborak t	192,6	102,4	37,4	53,9
Nishon t	92,6	100,7	9,5	155,4
Kasbi t	131,1	103,4	4,3	123,7
Chiroqchi t	227,3	102,7	-	-
Shahrisabz t	165,9	102,5	-	-
Yakkabog' t	173,5	102,9	7,5	272
Qarshi sh	907,5	108,3	97,6	64,3
Shahrisabz sh	153,4	103,5	45,6	64,8


Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida Shahrisabz shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 29,7 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan, Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Kasbi tumanida kuzatildi 3,3 %. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 59,5 %i.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)



Hududlar kesimida eng yuqori bajarilgan qurilish ishlarining hajmi Qarshi shahrida kuzatilib, viloyatdagi ulushi 26,2 % ni tashkil qildi. Koson hamda Qarshi tumanlarining ham viloyatdagi o'tgan davrga nisbatan oshgani kuzatildi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari, ulushi % da



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng kam ulushi Qamashi tumanida kuzatildi. Keyingi o'rinlarda esa, Nishon, Mirishkor, Dehqonobod va Kasbi tumanlarning viloyatdagi qurilish ishlaridagi ulushi mos ravishda o'tgan oylarga nisbatan kamayib bormoqda. Qarshi shahrining viloyatdagi ulushining oshishiga sabab, Qarshi shahrida "Vatanparvarlar bog'i" qurilganidir.



**Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish suratlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Qarshi shahrida kuzatildi. Ushbu hududda "Pudina Quvonchbek" MCHJ tomonidan ko'p tarmoqli suzish havzasi qurilish ishlari olib borilmoqda, shu tufayli ushbu hududda o'sish suratining 108,3 % bo'lishini ta'minladi.


Kitob tumanida yuqori o'sish surati, yani 106,6 % " Erkan Machinery" MCHJ tomonidan tegirmon uchun asbob-uskuna ishlab chiqaradigan zavod qurilishi natijasidir.

G'uzor tumanidagi yuqori o'sish surati asosan norasmiy sektor tomonidan qurilish ishlarining jadal bajarilganligi bilan bog'liq.



## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

jamiga nisbatan, ulushi %da



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 3280,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 94,9 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 177,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 5,1 foizini tashkil qildi.

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (0375) 221-32-47